

JAMIYAT BARQARORLIGI METODLARI.

Mavlonova Nilufar Oybek qizi

Osiyo Xalqaro Universiteti

Tarix va filologiya kafedrası o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10692420>

Annotatsiya. Mazkur maqolada jamiyatimizdagi beqarorlikni oldini olish, fuqarolar erkinligi va farovonligi uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratish uchun nimalarga e'tibor qaratahlimiz haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: jamiyat, demokratiya, erkinlik, kuchli siyosat, davlat.

МЕТОДЫ СТАБИЛИЗАЦИИ СООБЩЕСТВА.

Аннотация. В этой статье рассматривается, на что мы можем обратить внимание, чтобы предотвратить нестабильность в нашем обществе и создать условия, необходимые для свободы и благополучия наших граждан.

Ключевые слова: общество, демократия, свобода, сильная политика, государство.

METHODS OF COMMUNITY STABILITY.

Abstract. This article reflects on what we will focus on to prevent instability in our society, to create the conditions necessary for the freedom and well-being of citizens.

Keywords: society, democracy, freedom, strong politics, state.

Mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgan ilk kunlardan boshlab uning rivoji taraqqiyoti yo'lida eng avvalo undagi turli millat va ellatlar orasida hamjihatlik, ertangi kunga shukronalik hissini shakllantirishdek maqsadni o'z oldiga qo'ydi. Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirish va uning mustaqilligini mustahkamlash uchun mamlakatdagi turli millat vakillarini jipslashtirishga e'tibor qaratala boshlandi desak adashmagan bo'lamiz.

Bizga ma'lumki, mustaqilligimiz tufayli juda ko'p sohalarda yutuqlarni qo'lga kiritdik.

Bugun biz yangi hayot, huquqiy demokratik davlat barpo etayotgan ekanmiz, zamonning o'zi jamiyatimizda hanuz saqlanib kelayotgan, umrini o'tab bo'lgan ba'zi qarashlarni tubdan o'zgartirishga, davr bilan hamnafas bo'lib, yangicha fikrlashga da'vat etayotganini hisobga olish lozim. Mustaqillikning ahamiyati shundan iboratki, u millat oldida yangi imkoniyatlar ochadi, uning rivojlanishini tezlashtiradi. Ana shu sababli har bir xalq, har bir millat mustaqillikni orzu qiladi. O'zbek xalqi ana shu orzusiga erishdi. Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq islohatlarning tashabbuskori bo'lgan respublika birinchi Prezidenti I. A. Karimovning "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" nomli risolasida ta'kidlaganidek, "jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni sarhadlarimiz daxlsizligini, mamlakatimiz hududiy yahlitligini ta'minlash, islohotlarini chuqurlashtirish va jamiyatni yangilash borasidagi faoliyatimizning ustuvor yo'nalishlaridan birini tashkil etadi". Davlatimiz mustaqillikning ilk davridan boshlab resublikasida har bir yilni nomlash an'ana tusiga kirgan bugungi kunga qadar davom etib kelmoqda. Masalan 1997-yilning "Inson manfaatlar yili" deb e'lon qilinishida ham o'ziga xos ma'no mazmun kasb etgan edi, shu nom bo'yicha davlat dasturi ishlab chiqilgan bo'lib inson qadri, uning hayotdagi o'rni nechog'lik muhim ekanligini ko'rishimiz mumkundir. Mustaqilligimizning davrini biz tom ma'noda ikkita davrga bo'lishimiz mumkundir O'zbekiston Respublikasining 2016-yildan boshlab prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ham hokimiyatga kelgandan keyingi davrda

mamlakatdagi turli millat vakillariga ularning yashash, erkinligi, vatan yagona g'oyasiga jiddiy e'tabor qarata boshladi. Masalan prezident Shavkat Mirziyoyev Konstitutsiyamizning 24 yillik munosabati bilan tantanali nutqida 2017-yilni "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili" deb e'lon qilishni taklif qilishi Mustaqil O'zbekistonda millatlararo munosabatlarning o'zaro totuvlik va hamjihatlik munosabatlarini rivojlantirish va mustahkamlash uchun yangi bir sahifa ochib berdi desak, adashmagan bo'lamiz. Hozirda O'zbekiston aholisi 136 tadan ortiq millat va elatlardan tashkil topgan. Ularning har biri o'z tili, milliy urf – odatlari, milliy madaniyati, ma'naviyati, qoida va an'analariga ega. Bunda turli milliy xususiyatlarga ega bo'lgan aholining o'zaro totuvlik, tinchlik va diniy bag'rikenglik munosabatlari va uni mustahkamlashda davlat milliy siyosati katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Mazkur masalaning mazmun – mohiyati quyidagi dolzarb omillar bilan izohlanadi: Birinchidan, O'zbekistondagi barcha millatlar va elatlar orasida nizo, norozilik, g'amginlik, yotsirash, xudbinlik kabi nuqsonlarga yo'l qo'yilmaydi, mamlakatimiz aholisining totuvligi, hamjihatligi, hamkorligi, o'zaro bir – biriga bo'lgan hurmati o'sib, mustahkamlab boradi.

Bu o'z o'zidan millatlararo munosabatlarda har bir xalq va millatning milliy an'ana va qadriyatlariga chuqur hurmat bilan munosabatda bo'lishni taqazo etadi. Davlat milliy siyosatida bu borada yana bir yangi istiqbolli rivojlanish strategiyasi tanlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoevning tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi va 2017 yilning 7 fevral kungi Farmoni bilan tasdiqlandi. Harakatlar strategiyasi besh bosqichda amalga oshirilib, ularning har biri bo'yicha yil nomlanishidan kelib chiqqan holda alohida bir yillik davlat dasturini tasdiqlashni nazarda tutdi. Ta'kidlash joizki, 2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirish harakatlar strategiyasi beshta ustuvor yo'nalishining aynan beshinchi bandi «Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhda tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnihilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash» deb nomlanib, millatlararo totuvlik munosabatlarini yanada rivojlantirishga ham katta ahamiyat berildi.

Ikkinchidan, jamiyatimizda barqarorlik, tinchlik, osoyishtalik, millatlararo totuvlikni saqlab qolishda mintaqamizda sodir bo'layotgan turli hil mojarolarning mohiyatini chuqur anglab yetish, ularni keltirib chiqarayotgan muammolarni o'z vaqtida hal etish muhim ahamiyat kasb etadi. Barqarorlikni saqlab qolish faqat fuqarolarning tinch – totuv yashashining, shuningdek, jamiyatimizning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ma'naviy yangilanish va yuksalishning asosiy garovidir. Birinchi Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, - bugungi kunda asosiy vazifamiz - mustaqilligimizni yanada mustahkamlash, mamlakatimizning xalqaro obro'sini oshirish, xonadonimizdagi xavfsizlik, barqarorlik, tinchlik va totuvlikka nisbatan bo'layotgan har turli tahdid va xavf – xatarlarga nisbatan ogoh va hushyor turishdir. Uchinchidan, jamiyatimizning har bir qatlamiga umuminsoniylikning ustuvorligi, milliy qadriyatlarga sodiqligi, insonparvarlik; vijdon erkinligi, fikrlar xilma-xilligi; demokratiya, kuchli davlatdan – kuchli jamiyatga o'tish, jamiyat hayotini erkinlashtirish g'oyalarini singdirish lozim. Bular o'z navbatida umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligining talablariga to'la to'kis mos keladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida jamiyat hayotining, xususan, mafkuraviy jarayonlarning ham huquqiy me'yorlari aniq belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyaning 18-moddasida barcha fuqarolar bir xil huquq

va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdir, deb belgilab qo'yilgan. Albatta, davlat, jamiyat, siyosiy tizimining o'zagi, mamlakat barqarorligi va izchil taraqqiyoti uchun mas'ul bo'lgan siyosiy unstitutdir. Shu ma'noda, u jamiyatning mustahkam jipslashuvi, fikrlar xilma – xilligi va qarashlar rang–barangligi asosida hayotdagi jarayonlarning muvofiqlashuvidan manfaatdordir. To'rtinchidan, bugungi globallashuv sharoitida jahonning turli mamlakatlarida turli qonli to'qnashuv va siyosiy tortishuvlar, ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar kechayotgan bir paytda O'zbekiston Respublikasida tinch-osuda, millatlararo hamjihatlikda fuqarolar ulkan bunyodkorlik ishlarini amalga oshirmoqdalar. Beshinchidan, jahon miqyosida globallashuv va raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi zamonda biz dunyoda yuz berayotgan tub o'zgarishlar jarayonida egallab turgan o'mimizni xolisona va tanqidiy baholashimiz, tobora oshib borayo'tgan hayot talablariga javob berishimiz, kechayotgan davr bilan hamqadam bo'lishimiz shart". Mamlakatimiz mustaqillikka erishishi bilan uni mustahkamligi, uning barqarorligi yo'lida mamlakatdagi yuzdan ortiq bo'lgan turli millatlar orasida diniy bag'rikenglik, o'zaro hamjihatlik, tamoillariga e'tabor qaratdi va ular o'rtasidagi hamjihatlikni saqlashni dolzarb vazifalar qatoriga kiritdi.

Har qanday mustaqil davlatda xalqning erkin yashashi, farovon turmush ko'rishi, xohish-irodasining amalga oshirilishi, ezgu maqsad-niyatlari huquqiy jihatdan kafolatlanishi lozim. Shu kafolat Vatan taraqqiyotini, davlat mustaqilligini, xalqning jipsligini, millatlararo do'stlik va hamjihatlikni, mustaqillikning barqarorligini ta'minlashga shart-sharoit yaratadi.

Yuqorida aytilgan kafolat Respublikamiz Konstitutsiyasida o'z ifodasini topgan. Bu haqda Sh.Mirziyoyevning Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag'ishlangan uchrashuvidagi nutqida ham ta'kidlagandi: "Davlatimiz, O'zbekistonda yashayotgan har bir fuqaro kelajagining kafolatini Konstitutsiya beradi. Fuqarolarning haq-huquqlari, burchlari Konstitutsiyada belgilangan, tegishli qonunlar bilan mustahkamlangan. Maqsadimiz - erkin, demokratik huquqiy davlat qurish. adolatli jamiyat barpo etish, hech bir insonni kamsitmaslik, e'tiqodini hurmat qilish, erkinligini ta'minlash" - deb ko'rsatgan edi. Oldimizga qo'ygan yuksak maqsadlarga erishish uchun bugungi O'zbekistonga erkin va ravon fikrlay oladigan, uning hayotida faol ishtirok eta biladigan, o'z so'zini aytishga qodir, o'z vazifa va burchlarini to'g'ri anglab yetgan fuqarolar zarur. Bunday fuqaroni tarbiyalash -zamon, taraqqiyotimiz talabi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarda, qabul qilinayotgan qonun va qonunosti hujjatlarda inson sha'ni, e'tiqod erkinligi va qadr -qimmatini hurmat qilish, uning huquq va erkinliklarini eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etish g'oyasi o'z ifodasini topgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy maqsadi va tamoyili har bir fuqaroning huquq va erkinliklari kafolatlarini ta'minlashga qaratilgani e'tiborga molik.

Konstitutsiya vijdon va e'tiqod erkinligini o'zida mujassam etgan, yurtimizda istiqomat kiluvchi barcha millat va elatlarning tengligini ta'minlovchi, mustaqil diyorning mustaqilligini yorqin namoyon etuvchi asosiy hujjat, baxtimiz qomusi, xalqimizning or-u nomusi, diniy bag'rikengligimiz ifodasi hisoblanadi. Negaki, uning har bir moddasida, xar bir bandida xalqaro huquq me'yorlari ham, milliy bag'rikenglik tamoyillari ham aks etib turadi. Tarixan bosib o'tgan yo'limizga bir nazar tashlab, mustaqilligimizning yigirma olti yili mobaynida amalga oshirgan ishlarimizni sarhisob etar ekanmiz, konfessiyalararo muloqot, millatlar va dinlararo totuvlik hamda diniy bag'rikenglik sohalarida samarali ishlar amalga oshirilganiga guvoh bo'lamiz.

“O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligi to‘g‘risida”gi Qonunning 15-moddasida “O‘zbekiston fuqarolari millatidan, elatidan, ijtimoiy kelib chiqishidan, qaysi dinga mansubligidan va e‘tiqodidan qat‘i nazar, bir xil fuqarolik huquqlariga egadirlar, Respublika Konstitutsiyasi hamda uning qonunlari himoyasida bo‘ladilar”, deb yozilgan. Ushbu huquqlarning umumlashgan va jahon andozalariga javob beradigan siyosiy, huquqiy kuchga kirgani O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘z aksini topdi. Shuni hisobga olgan holda Konstitutsiyamizda bular alohida moddalar bilan belgilab qo‘yilgan: 4-modda: "O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an‘analari hurmat qilinishini ta‘minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi". O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida “O‘zbekiston xalqini, millatidan qat‘i nazar, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi” [4, 8-modda], deb aniq belgilab qo‘yilgan. “O‘zbekiston xalqi” tushunchasi mamlakatimizda yashab, yagona maqsad yo‘lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, do‘stlik va hamjihatlik uchun ma‘naviy asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekistonning milliy siyosat modeli uning tashqi siyosat sohasidagi faoliyatida ham o‘z ifodasini topgan. Respublikamiz millat va elatlar huquq va erkinliklarni muxofaza qilishga doir xalqaro bitimlarni amalga oshirish xalqaro maydonda etnik birliklarning huquqlarini ta‘minlash masalasiga doir tamoyillar ishlab chiqish jarayonida ham faol qatnashmoqda.

Xususan, O‘zbekiston fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, irqiy kamsitishlarning barcha turlariga barham berish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya, genotsid jinoyatlarining oldini olish va unga nisbatan jazolar to‘g‘risidagi konvensiya, millati, elati, dini yoki tili nuqtai nazaridan kam sonli bo‘lgan guruhga mansub shaxslarning huquqlari to‘g‘risidagi deklaratsiya kabi qator hujjatlarni imzolagani ham mazkur yo‘nalishdagi harakatlar ko‘lamini belgilab beradi. «Bag‘rikenglik» tushunchasi ilmiy faoliyat va ijtimoiy hayotning turli sohalari, jumladan, siyosat va siyosatshunoslik, sotsiologiya, falsafa, iloxiyot, ijtimoiy axloq, qiyosiy dinshunoslik kabi fanlar doirasida keng istifoda etiladi. Lotincha «tolerare», ya‘ni «chidamoq», «sabr qilmoq» ma‘nosini anglatgan «tolerantlik» so‘zi, asosan biror narsani, o‘zgacha fikr yoki qarashni, o‘z shaxsiy tushunchalaridan qat‘i nazar, imkon qadar bag‘rikenglik va chidam bilan qabul qilishni anglatadi. Xususan, ushbu tushuncha deyarli barcha tillarda bir xil yoki bir-birini to‘ldiruvchi ma‘no kasb etib, «chidamlilik», «bardoshlilik», «toqatlilik», «o‘zgacha qarashlar va harakatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish», «muruvvatlilik», «himmatlilik», «kechirimlilik», «mehribonlik», «hamdardlik» kabi ma‘nolarga ega.

O‘zbekiston - ko‘p millatli mamlakat. Bugun uning xududida 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikka, O‘zbekiston hududida yashayotgan barcha xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan milliy siyosat ishlab chiqildi. 2017 yilning yanvarida Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag‘ishlangan uchrashuvdagi nutqida millatlararo do‘stlik va hamjihatlik xalqimiz tinchligi va farovonligining muhim omili ekanligini ta‘kidlashi, mamlakatimizda bu sohada e‘tibor va g‘amxo‘rlikning izchil davom etayotganligining nishonasidir.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, Mamlakatimizda yashayotgan barcha millat va elat vakillari Konstitutsiya va qonunlarida belgilab qo‘yilgan teng huquqlilik va keng imkoniyatlardan foydalanib, milliy totuvlik va hamjihatlikda istiqomat qilishmoqdalar, Yurtimiz taraqqiyoti va

uning gullab-yashnashiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shmoqdalar. Yurtimizda barcha xalqlar va millatlar uchun millatlararo totuvlikni ta'minlash Konstitutsiyamiz va joriy qonunlar bilan mustahkamlangan.

REFERENCES

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: O'zbekiston, 1999. 19
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 51 b.
3. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. -T.: O'zbekiston, 2000. -127 b.
4. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. –T.:“O'zbekiston”, 1998 -23 b.
5. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga,hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. -T.: O'zbekiston, 2004. -B. 241.
6. Karimov I.A. O'zbekiston:milliy istiqlol,iqtisod ,siyosat,mafura.-T.: O'zbekiston,1996. - B.363.
7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid,barqarorlik shartlari vataraqqiyot kafolatlari.-T.: O'zbekiston,1997.-141-142 b
8. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti //Hidoyat jurnali.2016 . - B. 6.
9. Odilqoriyev X.Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. –Toshkent. Sharq, 2002 -268 b.
10. Jo'rayev N. Xalqaro terrorizm va mintaqaviy mojarolar. -Toshkent: Ma'naviyat, 2000. -304 b.